

“Salom, Vatandosh” mega-loyiha dasturi doirasida
“Yangi O‘zbekistonga qanot bo‘lamiz”
ijodiy videoroliklar tanlovi
NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tashkiliy huquqiy shaklidan qat’iy nazar, respublikamizdagi aholi, xususan yoshlar orasida vatanparvarlik, mardlik, jasurlik tuyg‘ularini shakllantirish, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga daxldorlik, mas’uliyatlilik hissini oshirish va kuchaytirish borasida yoshlarning ijodiy, innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan **“Yangi O‘zbekistonga qanot bo‘lamiz”** shiori ostida o‘tkaziladigan ijodiy videoroliklar tanlovini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning asosiy maqsadi mamlakatimiz yoshlarining qobiliyati, iqtidori, ijodkorligini bilmi va erishgan yutuqlarini holisona baholash, jamiyatga va davlatga yetuk yosh raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni intellektual salohiyatini oshirish, ushbu salohiyatlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, jamoatchilik, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish hamda munosib rag‘batlantirib borishdan iborat.

3. Tanlov bir bosqichda, ko‘rsatilgan tizimga muvofiq (*tanlov komissiyasining qaroriga asosan zarur hollarda tizimga o‘zgartirish kiritilishi mumkin*) quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

Vatanparvarlik, milliy ma’naviyatimiz, boqiy an’ana va milliy qadriyatlarimizga sodiqlik, boy tariximiz, ezgu fazilat va an’analарimizni yosh avlod qalbiga singdirish hamda fuqarolarda Ona-Vatanimizni asrash, yoshlarimizda Vatanga sadoqat, vatanni sevmok, uni ardoqlamoq, uning tinchligini, farovonligini, mehr-muhabbat hissiini oshirishga hissa qo‘shish tanlovning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tanlov bir bosqichda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan o‘tkaziladi. Tanlov jarayonlari uchun, xujjatlar qabuli, ishtirkchilar uchun alohida bot tashkil etiladi.

II. Tanlovni o‘tkazish tartibi.

4. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan tanlov bir yilda bir marotaba doimiy ravishda o‘tkaziladi.

5. Tanlovni o‘tkazish vaqti har yili iyul-avgust oylarida tashkillashtiriladi. G‘oliblar O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayrami arafasida aniqlanib,

taqdirlanadi. (Tanlov komissiyasining qaroriga asosan zarur hollarda tanlovni o'tkazish va taqdirlash marosimiga o'zgartirish kiritish mumkin.)

6. Hamkor tashkilotlar tomonidan tuzilgan hakamlar (Har bir hamkor tashkilotidan tanlovdagi nominatsiyalar bo'yicha soha mutaxassisi, chet tilini bilishi, tashkilotchi, ma'naviyatchi, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan eng kamida bo'lim boshliqlari bo'lishi lozim) tomonidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida tuzilgan ishchi guruh tanlovni shaffof va adolatli baholashini ta'minlash maqsadida soha mas'ullari, hakamlar hay'ati tarkibi tomonidan amalga oshiriladi.

7. Hakamlar hay'ati ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ijodiy ishlarni mazkur Nizomda belgilangan tartib va mezonlar asosida baholaydi.

8. Tanlovga taqdim etilayotgan videorolik davlat tilida, milliylikni targ'ib qiluvchi zamonaviy talqinda tayyorlangan bo'lib, ushbu tanlov ishtirokiga qadar ijtimoiy tarmoq va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilmagan, o'z g'oyasiga asoslangan holda tayyorlanadi.

9. Tanlovga quyidagi mavzular bo'yicha ijodiy videoroliklar qabul qilinadi:

Vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyasini targ'ib qilish;

Burch va sadoqatni o'z ijodiy ishida namoyish etish;

Vatanparvarlikka sohaviy yondashuv, sodiqlikni namoyish etish;

"Vatanim mening nigohimda...!" Vatanni qanday tasvirlamoq kerak milliy o'zlik, milliy qadriyat asosida yurt taraqqiyotiga hissa qo'shish.

Yangi O'zbekiston fenomeni yoshlar nigohida.

Mazkur mavzularning har biri umumiy tanlov hisoblanadi.

10. Tanlov mavzulari Hakamlar hay'ati tavsiyasiga ko'ra yangilanib boriladi.

11. Tanlovda 1, 2, 3-o'rin g'oliblari hakamlar hay'ati tomonidan aniqlanadi.

12. Tanlovga kelib tushgan videoroliklarning tasviri, ovozi, montaji har bir ijodiy ishning sifatiga alohida e'tibor beriladi va quyidagicha hakamlar tomonidan baholanadi.

Tanlov uchun yuborilgan videoroliklarni baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Nomzodning tanlagan mavzusi bo'yicha tanlovning asosiy maqsadini ochib berish umumiy balli.	10
1.1.	Mazmun va mohiyati. Mavzuni ochib berishi, vatanparvarlik, fidoyilik fazilatlarini, intellektual salohiyatini namoyish etuvchi g'oyalarini targ'ib qilish. Videorolik tanlov mavzusini to'liq va mazmunli ochib berish. Asosiy g'oyaning aniq ifodalanishi.	3

1.2.	Tasvir, texnik sifati montaj, reglamentga amal qilinishi: Videorolikning tasvir sifati yuqori bo'lishi zarur. Reglament har bir video rolik uchun 1-3 daqiqa bo'lishi lozim. Tasvir aniqligi va sifati Kamera ishlatilish mahorati Videorolikda ovoz aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Ovoz sifati va aniq eshitilishi Musiqa va ovoz effektlarining mos kelishi Videorolikning montaj ishlari sifatli amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Montaj texnikasi	2
1.3.	Ijodiy va innovatsion yondashuv, videorolik original va ijodiy yondashuv bilan yaratilgan bo'lishi kerak. O'ziga xoslik va original yondashuv Innovatsion g'oyalar qo'llanilishi Videorolik plagiat bo'lmasligi kerak.	2
1.4.	Milliylik va etika, videorolikda milliylik targ'ib qilinishi zarur. Milliy qadriyatlar aks ettirilishi Milliylik va zamonaviylik uyg'unligi Videorolik etika va estetika mezonlariga mos bo'lishi kerak. Etika mezonlariga rioya qilinishi Estetik jihatlari, auditoriyaga mo'ljallanganligi Videorolik keng auditoriya uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi	3

13. Videoroliklar Hakamlar hay'ati tomonidan yuqoridagi mezonlar asosida baholanadi. Har bir mezon bo'yicha berilgan ballar yig'indisi yakuniy natijani belgilaydi:

- videorolikda mavzuning mazmun-mohiyati ochib berilganligi;
- videorolikda tasvir, ovoz va montaj ishining sifati;
- muallifning videorolikni yaratishdagi o'ziga xos ijodiy innovatsion yangicha yondashuvi, ishning plagiat emasligi;
- milliylikni zamonaviy ko'rinishda targ'ib qiluvchi, etika-estetika tomonlariga alohida ahamiyat berilishi kerak.
- videorolik barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lishi;
- videorolikda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga zid bo'lgan tasvir yoki mazmun aks ettirilmasligi.

14. Tayyorlangan va taqdim etilayotgan videorolik tarbiyaviy jihatdan biror bir mavzuni asosli olib chiqishi, zamonaviylikka urg'u bergan holda sodda, xalqchil

tilda “**Vatan tuyg‘usi**”, “**Vatan mehri**”, “**Sadoqatli, fidoiy, aql idrokni charxlovchi**” yo‘nalishlarni targ‘ib qilishi kerak.

15. Videoroliklar Hakamlar hay‘ati tomonidan tanlov mezonlari asosida saralanadi. **Eng yaxshi deb topilgan 10 ta** (*kelib tushgan ijodiy ishlarning soni va sifati inobatga olingan holda mazkur raqam o‘zgarishi mumkin*) videorolik **Oyina.uz** portali telegram kanalida e‘lon qilinadi va maxsus bot orqali ovoz yig‘ish jarayoni tashkil etiladi.

16. Yakuniy natijalarga ko‘ra ovozlar soni tartibida 1, 2 va 3-o‘rinlar aniqlanadi.

17. Tanlov g‘oliblari haqidagi ma‘lumotlar **Oyina.uz** portali va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e‘lon qilinadi.

18. Tanlovda g‘olib, deb topilgan ijtimoiy videoroliklar respublikadagi telekanallar, ijtimoiy tarmoqlar va tashqi reklama vositalari (LED ekranlar) orqali muntazam ravishda namoyish etib boriladi.

19. Tanlov jarayonlari OAV xamda ijtimoiy saytlar orqali doimiy ravishda yoritib boriladi.

20. Ushbu tanlovda ishtirok etgan chet davlatlarda istiqomat qiluvchi O‘zbekiston yoshlari g‘oliblikni qo‘lga kiritganda ularning sovg‘alari, Tashqi ishlar vazirligi tomonidan istiqomat qilayotgan davlat va hududiga yetkazib beriladi.

21. Tanlov shartlariga javob bermaydigan videoroliklar qabul qilinmaydi. Mualliflik huquqi buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, plagiat va ovoz yig‘ish jarayonlarini soxtalashtirishga uringan holatlar aniqlanganda ishtirokchi tanlovdan chetlatiladi.

III. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

22. Tanlov g‘oliblari quyidagicha taqdirlanadi:

1-o‘rinni egallagan g‘olibga **IPhone 15 Pro max**

2-o‘rinni egallagan g‘olibga **Noutbuk (HP ictus 15-fb0070AX 5-600H 8/256 GB SD GTX1650 GB 15.6" FHD)**

3-o‘rinni egallagan g‘olibga **Planshet (Samsung Galaxy Tab S9 FE Silver 6/128GB).**

G‘oliblarni taqdirlash smeta asosida amalga oshiriladi.

23. Hakamlar hay‘ati qarori bilan tanlovga kelgan videoroliklar ta’sirchanlik darajasi, sifati, mazmuni, dolzarbliligi, tarbiyaviy ahamiyati, qo‘yilgan talablarga mosligi e‘tiborga olingan holda qo‘shimcha o‘rinlar, rag‘batlantiruvchi mukofotlar bilan taqdirlanishi mumkin.

24. Tanlov g‘oliblari uchun mukofotlar, tanlovning maxsus botini yaratish, tanlovni ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirish maqsadida targetli reklama berish, tanlov ekspertlari (Hakamlar hay‘ati a‘zolari)ni moddiy rag‘batlantirish hamda

taqdirlash marosimini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar tegishli tartibda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

25. Tanlov g'oliblari homiy tashkilotlar tomonidan ham qo'shimcha ravishda rag'batlantirilishi mumkin.

26. Mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar o'z hisobidan tanlov g'oliblarini qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirishga haqli.

IV. Yakuniy qoidalar

27. Tanlovga kelib tushgan ijodiy ishlar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida 1 yil davomida saqlanadi.

28. Tanlov natijalari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib boriladi.

29. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.